



ILG‘OR TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARIGA ERISHISHDA QR-KOD LARDAN FOYDALANISH QANCHALIK SAMARALI? QR-KODNI QANDAY YARATAMIZ?

Nortoshov Utkir Rayimkulovich

*Sirdaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi tasviriy
san’at va chizmachilik fani metodisti @nortoshovu.gmail.com +998941687128*

Annotatsiya. Bugungi kunda yangi darsliklarimizda har bir mavzumizni tushintirish yoki amaliy bajarish jarayonlari bo‘yicha QR-kodlar qo‘yilgan. Ijtimoiy tarmoqdan mavzumizga doir ma‘lumotlar qidirsak, juda ko‘plab ma‘lumotlar topiladi, lekin biz uchun zarur bo‘lganini saralash yoki o‘quvchi yoshlarning ongi va dunyoqarashiga salbiy ta‘sir etmaydigan ma‘lumotlarni tezkor topish bu QR-kodlar bilan juda oson va qulay. O‘zimiz tayyorlagan manbalarni targ‘ibot qilish uchun ham samarali yechim xisoblanadi. Siz bu sehrli kvadratlarni dars yoki mavzuni mazmun jihatidan to‘ldirish, mavzuga ta‘alluqli video, animatsiya yoki test materiallarni joylashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Shuning uchun ham QR-KODni qanday yaratishni bilishimiz zarur.

Kalit so‘zlar; QR-kod, QR-kod yaratuvchi servislari, QR-kod yaratuvchi dasturlar.


Kirish. QR-koddan foydalanish, yaratish uchun u haqida qisqacha bo‘lsada ma‘lumotga ega bo‘lishimiz kerak. QR-kodlar (Quick Response - ingliz tilida “tezkor reaksiya”, “tezkor sadojavob”) QR-kod - ikki o‘lchamli shtrix kod bo‘lib, mazkur shtrix kod oq va qora piksel (nuqtalar)dan iboratdir. Ushbu piksel nuqtalar bir necha yuz belgilarni kodlash imkonini beradi, ya‘ni 7089 ta raqam, 4296 ta harf yoki 1812 ta belgini o‘z ichiga olishi mumkin.





Kodlanadigan matn-oddiy matn, Internet manzili, telefon raqami, ma'lum bir joyning geolokatsiyasi yoki koordinatasi, ma'lumot taqdim etuvchi insonning tashrif kartochkasi ham bo'lishi mumkin. QR-kodlarni vizuallashtirish odatda zamonaviy smart telefonlar yordamida amalga oshiriladi. Bunda smartfon kamerasi QR-kodga qaratiladi va zarur internet resursga yoki saytga ortiqcha harakatlarsiz o'tish imkoni bo'ladi. QR-kodlardan foydalanish katta hajmdagi giperhavolalarni terish, yozib olish yoki zarur axborot manbasiga tezkor murojaat qilish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, kompyuter monitoridagi reklama, jurnal sahifasidagi e'longa QR-kod qo'shib qo'yilsa uni o'qiydigan o'quvchi yoki shu tovarni iste'molchisi ortiqcha harakatlarsiz internetga joylashtirilgan sayt hamda ijtimoiy tarmoq sahifalariga tezkor o'tishi va ma'lumotni olishi mumkin.

Ta'lim sohalarida foydalanishda biz izlayotgan mavzu ijtimoiy tarmoqa yuzlab topilishi mumkin, lekin qaysi biri aynan mavzumizga ta'luqli yoki o'quvchilarimizning yosh va psixologik jihatlariga mosligini saralash ham anchagina vaqt talab etadi. QR-KOD lardan foydalanish esa oldindan tayyorlangan yoki ko'rib chiqilgan manbalarga tez va oson o'tishimizni ta'minlab beradi.



Misol uchun tasviriy san'at darsligidan 6-sinf o'quvchilariga 1-chorak yakuni bo'yicha test ishlash kerak bo'lsa <https://t.me/quizbotdatest/34> Ushbu xavola "telegram" ijtimoiy tarmog'idagi test botida "Guruhda testni boshlash" tugmasini bosing va o'zingiz xoxlagan guruhga testni yuboring !

Tasviriy san'at 6-sinf 1-chorak 2022 nashr Bo'yicha test.



Tasviriy san'at darsligidan 7-sinf o'quvchilariga 1-chorak yakuni bo'yicha test ishlash kerak bo'lsa <https://t.me/quizbotdatest/35> Ushbu xavola "telegram" ijtimoiy tarmog'idagi test botida "Guruhda testni boshlash" tugmasini bosib va o'zingiz xoxlagan guruhga testni yuboring !

Tasviriy san'at 7-sinf 1-chorak 2022 nashr Bo'yicha test.



QR-KODLARNI O'QISH.

QR-kodlarni o'qish uchun smartfonga maxsus dastur o'rnatiladi. Agar foydalanayotgan smartfoningizda QR-kod o'qiydigan bironta dastur o'rnatilgan bo'lsa, u holda yangisini o'rnatishga ehtiyoj bo'lmaydi. QR-kodlarni o'qish uchun mo'ljallangan "tekin" dasturiy ta'minotlardan namunalar:

QR-KOD YARATISH. (manzil/internet sahifa)

QR-kod yaratuvchi servislar:	QR-kod yaratuvchi dasturlar:
1. QR-kod onlayn generatori qrcode.tecit.com/ru – *.PNG bichimda yaratiladi. QR-kodingizni tekin yarating ru.qrcode-generator.com Rasmlar – *.JPG, *.EPS, *.SVG bichimlarda taqdim etiladi QRCode-Monkey www.qrcodemonkey.com Rasmlar-*.PNG, *.EPS, *.SVG, *.PDF bichimlarda taqdim etiladi. QR-code yaratish algoritmi: QR-kod yaratish uchun internetdan www.qrcoder.ru sayti ishga tushiriladi. 1.Brauzerdan QR-kodga aylantirilishi rejalashtirilgan manzil ko‘chirib olinadi. 2. «Sayt»dagi «vvedite tekst dlya kodirovaniya» oynasiga kodlanadigan matn yoki internet sahifa («URL-manzili», «URL») qo‘yiladi. DAVOM ETAMIZ... ...SAYTDAGI SERVISDA: 3. «Sozdat QR-kod» («Create QR Code»ctrl+enter) tugmachasi bosiladi. 4. “ZDES BUDET VASH QR-CODE” oynasida yaratilgan QR-kod paydo bo‘ladi. 5. Yaratilgan QR-kod rasmining ustiga sichqonchani olib boring, va uni kompyuter buferiga ko‘chirib olinadi. 6. Ko‘chirib olingan QR-kodni dars ishlanmasini tayyorlaydigan dasturingiz yoki matn muharriringiz sahifalariga joylashtirishingiz mumkin.	QR Code Studio QR-kodlarni (Windows, Mac OS) operatsion tizimi o‘rnatilgan kompyuterlarda tekin yaratiladi. Dastur tez va qulay QR-kod yaratadi. Tayyor kodlar (BMP, GIF, JPG, PNG, TIFF) bichimida yoki axborot almashish buferiga saqlanishi mumkin.




Havolani QR kodiga aylantirish qo'lda kiritish zaruriyatini yo'qotib, havola almashish jarayonini soddalashtiradi.

Topshiriq: 1. Smartfoningizga Qr-code o'qish dasturini o'rnatib;

2. Mazkur sahifalarga joylashtirilgan Qr-code larni o'qiting.

<https://www.qrcode-monkey.com>



Telefon raqam:

Nortoshov Utkir Rayimkulovich +998941687128

Xulosa

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda ilm-ma'rifatga alohida e'tibor qaratilgani o'laroq, butun ta'lim tizimida xususan amaliy fanida ham o'z isbotini topmoqda, shundan kelib chiqib zamonaviy o'qitish tendensiyalarini xisobga olib QR kodlarini yaratiladi, bunda barcha sinfda keltirilgan zamonaviy bilim ko'nikmalarni egallab borishlari maqsadga muvofiqdir. Darslik kitoblarda berilgan QR kodlarni to'laonli his qilish va uni amalda bajarish va o'quvchilarga ayni shu mavzuni to'la to'kis o'rganishga imkon yaratadi. Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Zero, sa'nat-tabi'at, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasi, kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim - tarbiyadir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.qrcode-monkey.com>.
2. QR-КОД -кандай яратилади?-2019 Таржимонлар РТМ Методистлари-Д.М. Сайфуров, Р.А. Алимов.

